

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2021 Vol. 2**

**[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)**

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

2021 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)

**BOSH MUHARRIR**

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR**

**O’RINBOSARI**

Karomat Mullaxo’jayeva (o’zbek)

Qosimjon Ma'murov (ingliz)

**MAS’UL KOTIB**

Ozoda Tojiboyeva

**TAHRIR HAY’ATI**

Zaynobiddin Abdirashidov

Karl Rayxl (Germaniya)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Kamol Abdulla (Ozarbayjon)

Vahit Turk (Turkiya)

Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

Mark Toutant (AQSh)

Boqijon To’xliyev

Qosimjon Sodiqov

Nurbboy Jabborov

G’aybulla Boboyorov

Vali Savash (Turkiya)

Kimura Satoru (Yaponiya)

Hamidulla Dadaboyev

Aftondil Erkinov

Rashid Zohidov

Baxtiyor Abdushukurov

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Dilnavoz Yusupova

Qo’ldosh Pardayev

Elchin Ibrohimov (Ozarbayjon)

Nodirbek Jo’raqo’ziyev

**MUNDARIJA**

**ADABIYOTSHUNOSLIK**

**Ilyos Ismoilov**

Tafsirlarda Iskandar mavzusiga oid talqinlar 4

**Jahongir Turdiyev**

Turkiy me’rojnomalardagi motivlar xususida 20

**MATNSHUNOSLIK**

**Abdimurod Arslonov**

“Temurnoma”larning matniy xususiyatlari 34

**G’iyosiddin Shodmonov**

O’zbek matnshunosligining ilk bosqichi va Navoiy “Xamsa”si nashrlarining takomili 50

**Aftondil Erkinov**

**Oysara Madaliyeva**

“Terma devon” yoki Navoiy “Navodir un-nihoya”sining so’nggi redaksiyasi? 64

**Ilova. Matn**

68

<b>EDITOR IN CHIEF</b>	
Shuhrat Sirojiddinov	
<b>DEPUTY EDITOR IN CHIEF</b>	
Karomat Mullakhojaeva (Uzbek)	
Kasimjon Mamurov (English)	
<b>EXECUTIVE SECRETARY</b>	
Ozoda Tojiboeva	
<b>EDITORIAL BOARD</b>	
Zaynabiddin Abdirashidov	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Mark Toutant (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Kasimjan Sadikov	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Vali Savash (Turkey)	
Onal Kaya (Turkey)	
Kimura Satoru (Japan)	
Vahit Turk (Turkey)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Aftandil Erkinov	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bakhtiyar Abdushukurov	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Yusupova Dilnavoz	
Kuldosh Pardaev	
Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)	
Nodirbek Jurakuziev	

<b>CONTENTS</b>	
<b>LITERATURE</b>	
<b>Ilyos Ismoilov</b>	
Interpretations on the subject of Alexander in Tafsir	4
<b>Jahongir Turdiev</b>	
Motives in Turkic Mi'rajnama	20
<b>TEXTOLGY</b>	
<b>Abdimurod Arslonov</b>	
Text features of "Temurnoma"	34
<b>Giyosiddin Shodmonov</b>	
The first stage of uzbek textology and the development of publications of Navoiy's Khamsa	50
<b>Aftondil Erkinov</b>	
<b>Oysara Madalieva</b>	
The latest edition of Terma Devon or Navoi's Navodir un-nihoya?	64
<b>Appendix. Text</b>	68

**MATNSHUNOSLIK**  
**TEXTOTOLOGY**

## **“Temurnoma”larning matniy xususiyatlari**

Abdimurod Arslonov<sup>1</sup>

### **Abstrakt**

O'zbekiston hududida xalq kitobi ko'rinishida vujudga kelgan Amir Temur haqidagi qissa va dostonlar alohida silsilani tashkil etadi. Ularning muayyan qismi forsiy tilda, boshqa bir qismi turkiy-chig'atoy tilida bitilgan. Istiqlol yillari Amir Temur tarixini keng ko'lamda o'rganish izga tushdi. Sohobqiron siymosining badiiy talqiniga ham e'tibor qaratildi. Bugunga kelib o'tmish ijodkorlari yaratgan badiiy asarlarni matniy tadqiq etish bir qadar yo'lga qo'yilgani e'tirofqa loyiq. Lekin, ta'kidlash joizki, asriy an'analarimiz, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy-madaniy boyliklarimizni tiklash, badiiy merosimizni xolis o'rganish masalasida hali muammolar o'z yechimini to'laligicha topgan emas. Jumladan, buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohobqiron Amir Temur hayotiga bag'ishlab yozilgan “Temurnoma”lar matni va ularning qo'lyozma manbalarini monografik tarzda o'rganishga zarurat bor. Shu bois bu shaxs hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan badiiy-tarixiy asarlar qo'lyozmalarini qiyosiy-matniy o'rganish va “Temurnoma”larni matnshunoslik va adabiy manbashunoslik erishgan yutuqlar asosida qayta tadqiq qilish dolzarb muammolardan sanaladi. Shunga ko'ra, Amir Temur hayoti va uning hukmronlik davri yoritilgan “Temurnoma” kabi badiiy-tarixiy asarlarni qiyosiy-matniy tadqiq etishga katta ehtiyoj bor. Ushbu maqolada Amir Temurga bag'ishlab yozilgan badiiy-tarixiy asarlarning qo'lyozma manbalari matniy tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** *matniy tadqiq, qo'lyozma, an'anaviy qolip jumla, xalq kitoblari, tarixiy-madaniy meros.*

### **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi

---

<sup>1</sup> Arslonov Abdimurod Karomatovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat universiteti.

**E-pochta:** arslonova@tersu.uz

**ORCID ID:** 0000-0003-0553-6624

**Iqtibos uchun:** Arslonov A. K. 2021. “Temurnoma”larning matniy xususiyatlari”. *Oltin bitiglar* 2: 34–49.

“Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targʻib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorida “tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur oʻrganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qoʻshgan beqiyos hissasini targʻib etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlodimizni xalqimiz buyuk maʼnaviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini tubdan oshirish” lozimligi koʻrsatib oʻtilgan. Qarorda koʻrsatilgan vazifalarni bajarishda bizdan talab etiladigan ishlardan biri – badiiy adabiyot, xususan, qadimiy va boy adabiyotimiz tarixi, mumtoz adabiyotimiz namunalarini jiddiy oʻrganishdir.

Bugunga qadar yurtimiz qoʻlyozma fondlarida turli mualliflar tomonidan Amir Temurga bagʻishlab yozilgan adabiy asarlarning yigirmadan ortiq nusxasi bizgacha yetib kelgan. OʻzFA Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida Said Muhammadxoja bin Jaʼfarxojaning “Dostoni Amir Temur” asarining uch nusxasi saqlanadi. Fondga mavjud 5738, 4105 va 185 inventar raqami bilan saqlanayotgan qoʻlyozma manbalarning matnii xususiyatlarini tadqiq etish muhim masalalardan.

### **Asosiy qism**

5738-raqamli qoʻlyozma hijriy 1304-yili (milodiy 1886) nastaʼliq xatida koʻchirilgan. Ayrim sahifalarda soʻzlar boʻyalgan, ustiga chizilgan holatlar ham uchraydi. Sarlavhalari qizil rangda berilgan. “Temurnoma”lar nasriy yoʻlda yozilganligi bois voqealar xalq kitoblarining tuzilishiga xos boʻlgan anʼnaviy qolip jumlar bilan boshlanadi. Ushbu manbada ham bu xildagi variantlarning quyidagi shakllari mavjud:

1. *Hikoyati roviyoni axbor va noqiloni osor va muhaddisi dostoni koʻhan va haddasa chunoni suxan, ammo noqiloni daftaru roviyon shirin moʻtabar hikoyat va soʻz andogʻ taʼyin qilurlarkim, ... [2<sup>a</sup>-2<sup>b</sup>];*

2. *Sohibi tavorix andogʻ aytubdurlarkim roviyoni dafataru noqilon shirin moʻtabar andogʻ taʼyin qilurlarkim, ... [66<sup>b</sup>];*

3. *Ammo roviyon axbori noqilon osori andogʻ rivoyat qilurlarkim... [75<sup>b</sup>];*

4. *Fihris kalom, az naql saranjom, ammo roviyoni axbor sohibi hol va noqiloni hikoyati shirin maqol izdi bezavol va barkamol birla sohibi tavorix andogʻ ravoyat qilurkim, ... [98<sup>a</sup>];*

5. *Xotami roviyon, axboru noqilon osor loyiq sodiq hikoyat kunandai suxan muvofiq ba tabʼ sharif ashrafi oliyya xush kelgay deb*

*muxtasar soʻz taʼyin qilurlarkim, ... [103<sup>a</sup>-103<sup>b</sup>].*

Xalq kitoblarida asar boblarining boshlanma qismida “Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor andoq rivoyat qilurlarkim” kabi anʼanaviy jumlar nasriy qissalarga ham xosdir. Shuningdek, bir voqeadan ikkinchi bir voqea bayoniga oʻtishda anʼanaviy boshlanma qolip jumalarning quyidagi shakllari ham keng qoʻllaniladi:

“Alqissa, kunlardan bir kuni hazrati imom Sadra-sh-shariʼa miqdori toʻrt yuz toʻrt ming tolibi ilmlargʻa madrasada darsgoʻylik qilib oʻlturib erdilar...” [3<sup>a</sup>];

“**Alqissa**, Bekinabegim xatni koʻrgʻach koʻpdin koʻp betoqat boʻlib, Yoʻqunxonim kundoshlarining oldigʻa kirib aydilararkim...” [8<sup>a</sup>];

“Roviylar andogʻ rivoyat qilurlarkim, Amir Qaragʻanning otasidan qolgan bir sohibjamol xotin qolib erdi va aning oti Boygʻunxonim...” [71<sup>a</sup>];

“Filhol, hazrat Shayxul-olam duo qilib bir-ikki marta “kuf-suf”, deb dam soldilar ersa, oʻshal hol ojizalari sogʻaydi...” [3<sup>b</sup>];

“**Filhol**, Amir Tagʻoy Bahodir eshikdan kirib keldilar...” [5<sup>a</sup>].

“Alqissa” kirish soʻzi “Temurnoma”larda alohida oʻringa ega. 5738-raqamli qoʻlyozma manbada ushbu kirish soʻzi 280dan ortiq oʻrinda ishlatilgan va bularning aksariyati qizil rangda berilgan. U, nafaqat, fasllar boshlanmalarida, balki ichida, muayyan voqealarning oʻrin almashinuvi yoki voqelik bayonida muallifning taʼkidni kuchaytirish, alohida soʻz hamda fikrga urgʻu berish maqsadida ham qoʻllangan.

Qoʻlyozma nusxada xattot tomonidan tushirib qoldirilgan soʻzlar hoshiyada “qanotcha” belgisi bilan berib boriladi. Masalan, manbaning 1<sup>b</sup> sahifasi beshinchi qatoridagi “...aql-u xush va fahm-u idrok zehn birla oʻzini tonutti...” gapida “birla oʻzini” soʻzi asosiy matndan tushib qolgan va xattot bu soʻzni “qanotcha” belgisi bilan hoshiyada beradi. Xuddi shu kabi holatlar qoʻlyozma 7<sup>a</sup> sahifasining oʻninchi qatoridagi “...shahri Samarqandda bir Otasuluk degan zo-hidiy bor ermishkim, oʻzlariga gʻorni vatan qilib, kecha-kunduz toa-ti xudoni qilur ermish...” gapidagi “...kim, oʻzlariga gʻorni vatan qilib, kecha-kunduz toati xudoni qilur ermish” jumlasini, 8<sup>a</sup> sahifa toʻrtinchi qatordagi “Emdi bisyor besihat kasalmand boʻldum va Yoʻqunxonim qizimizgʻa ham bisyorsalom, Bekinabegimni bizga tezroq yuborsin-larkim...” gapidagi “besihat kasalmand boʻldum va Yoʻqunxonim qizimizgʻa ham bisyor” jumlasini, 29<sup>a</sup> sahifa toʻrtinchi qatordagi “Haz-rati Amur Temur sohibqironni biri boshlab ularning xizmatlarigʻa olib bordilar” jumlasidagi “sohibqiron” soʻzining “sohib” qismi, 100<sup>a</sup> sahifaning sakkizinchi qatoridagi “...akobir fuzalo va ulamoyi Bagʻdod

birla sulton Ahmad maslahat va mashvarat qildilar, aydilar kim: “Ey sulton Ahmadsizdin insof...” gapidagi “maslahat va mashvarat qildilar, aydilar kim: “Ey sulton Ahmad” jumlasini, 104<sup>a</sup> sahifa 2-qatoridagi “Alqissa, bu voqeani Muoviyai soniy Shom aimmai ulamolarig’a bayon qildi...” gapidagi “Muoviyai soniy” so’zi “qanotcha” belgisi ostida hoshiyada berilgan.

Qo’lyozmadagi 12ta she’rning har bir misrasi uchta qizil nuqta bilan ajratib yozilgan. Sharq xattotlik san’ati tarixida, odatda, nasriy asarlar tarkibida keladigan Qur’on oyatlari, hadislar va shu bilan birga nazmiy parchalarni asosiy matndan ajratib ko’rsatish uchun uchta qizil nuqtadan foydalanish va “bayt” deb sarlavha qo’yish an’ana bo’lgan. Mazkur qo’lyozmada keltirilgan she’riy parchalar ham “bayt” sarlavhasi ostida, har bir misra uchta qizil nuqta bilan ajratib ko’rsatilgan.

Nusxaning ayrim sahifalari, xususan, 55<sup>a</sup> sahifaning 5-6-qatoridagi ba’zi so’zlar, 62<sup>a</sup> sahifaning 10-11-qatoridagi so’zlar, 65<sup>b</sup>-66<sup>a</sup> sahifadagi ayrim so’z va jumlar bo’yalgan, 66<sup>b</sup>-67<sup>a</sup> sahifaning deyarli barcha qatorlaridagi so’z va jumalarda siyoh chaplanish holatlari uchraydi. 67<sup>b</sup> sahifadagi 9-11-qatorlarni, 68<sup>a</sup> sahifadagi 8-10-qatordagi ayrim jumalarni o’qish imkonsiz (ushbu qatorlar asarning 185, 4105/II raqamli nusxalari asosida tiklandi).

O’zbek mumtoz nasri arabiy va forsiy so’zlarning ko’p qo’llanishi bilangina emas, bu tillardagi mikromatnlardan keng ko’lamda istifoda qilinishi bilan o’ziga xos xususiyatga ega. Bu holat “Temurnoma”larda, jumladan, 5738-raqamli nusxada ham ko’p uchraydi. Asar matnidagi arabiy kiritmalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

### **Qur’oni Karim oyatlari**

Ularning ba’zilari muayyan oyatning aynan ko’chirmasi bo’lsa, ayrimlari muayyan oyatning bir qismidan iborat:

خَلِيفَةُ الْأَرْضِ فِجَاعِلَانِي – “Baqara” surasi 30-oyatdan juzv “Men yer yuzida xalifa qilmoqchiman” [96<sup>6</sup>];<sup>1</sup>

آدَمَ بَنِي كَرَمًا وَلَقَدْ – “Isro” surasi 70-oyatdan juzv “Batahqiq, Biz Bani Odamni azizu mukarram qilib qo’ydik” [96<sup>6</sup>];

وَإِذْ قُلْنَا لِلْمَلَائِكَةِ اسْجُدُوا لِآدَمَ فَسَجَدُوا إِلَّا إِبْلِيسَ – “Baqara” surasi, 34-oyatdan juzv: “Esla farishtalarga: “Odamga sajda qilinglar!” deganimizni. Bas, sajda qildilar, magar iblis bosh tortdi...” [97<sup>a</sup>];

وَعَلَّمَ آدَمَ الْأَسْمَاءَ كُلَّهَا – “Baqara” surasi, 31-oyatdan juzv: “Va U

<sup>1</sup>Qur’oni Karim oyatlari va ularning juzvlari tarjimasi Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Tafsiri hilol” asaridan olindi.



Odamga ismlarning barchasini o'rgatdi..." [97<sup>a</sup>];

كُلُّ نَفْسٍ ذَائِقَةُ الْمَوْتِ – "Oli Imron" 185, "Anbiyo" 35-, "Ankabut" 57-oyatlar: "Har bir jon o'lim sharbatini totguvchidir" [97<sup>a</sup>];

كُلُّ شَيْءٍ هَالِكٌ إِلَّا وَجْهَهُ – "Qasos" surasi, 88-oyat: "Undan o'zga har bir narsa halok bo'lguvchidir" [97<sup>a</sup>];

قُلْ لَا أَسْأَلُكُمْ عَلَيْهِ أَجْرًا إِنْ سِيزِلَارْدَان بُونِغ ئۇئۇن ئاق سۇرَامَاسْمَان..." [107<sup>b</sup>].

## **Hadisi shariflar**

### **Qola-n-nabiyu alayhis-s-salom:**

لَعَلِّي يَا عَلِيٌّ مِنْ لَا يَحْبِبُكَ الْأُمَمُ عَنِّي تَقَى وَلَا يَغْضِيْبُكَ إِلَّا مَنَافِقُ شَقِي – Nabiy alayhis salom dedilar: Yo Ali, taqvoli va mo'min kishilardan boshqa kishi seni sevmaydi, baxil va munofiq kishilardan boshqalar sendan g'azablanmaydi [107<sup>b</sup>].

### **Qola-n-nabiyu alayhis-s-salom:**

سَتَفْرَقَا أُمَّتِي عَلَى ثَلَاثَةِ وَسَبْعِينَ فَرْقَةً كُلُّهُمْ فِي النَّارِ إِلَّا نَاجِيَهُ – Nabiy alayhi-s-salom dedilar: "Mening ummatim yetmish uch firqaga bo'linadi, ularning hammasi do'zaxiydir illo bir jamoa "noji'a" – najot topuvchidir [18<sup>b</sup>].

## **An'anaviy duolar**

Badiiy-tarixiy nasr namunalarida duolarning, asosan, oxirat obodligi va hukmdorlikni emin hamda uzun bo'lishini tilash turlari uchraydi. "Temurnoma"lar matnida islomiy manbalarda takrorlanuvchi an'anaviy duolarning bir necha ko'rinishlari mavjud:

رَحِمْتَ اللَّهُ عَلَيْهِمْ – Unga Allohning rahmati bo'lsin [2<sup>a</sup>];

أَمِينَ يَا رَبَّ الْعَالَمِينَ بِرَحْمَتِكَ يَا أَرْحَمَ الرَّاحِمِينَ [111<sup>a</sup>] – Omin, ey olamlarning Robbisi, ey rahmlilar rahmlisi, o'zingning rahmating bilan.

تَمَتَّتِ الْكِتَابَ بِعَوْنِ الْمَلِكِ الْوَهَّابِ اللَّهُمَّ اغْفِرْ لِي مِنْ كُتُبِهِ وَمَنْ طَالَعَهُ وَمَنْ سَمِعَهُ وَمَنْ نَظَرَهُ – Allohning madadi bilan kitob tugadi. Ey Allohim, yozganni, mutolaa qilganni, eshitganni va nazar solganni o'zing mag'firat qil.

## **An'anaviy sharaflash kalimalari**

"Temurnoma"larda muallif Allohni, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomni, aziz avliyolar va ilm ahli, xon yoki uning amaldorlarini tilga olganda an'anaviy sharaflash kalimalaridan foydalalanib, o'z munosabatini bildirgan. Sharaflash kalimalari badiiy-tarixiy nasrning boshqa namunalarida bo'lgani kabi ko'proq arab va fors tillarida kiritilgan:

حَمْدٌ بِيْحِدٍ وَتَثْنَايَ بِيْعِدَدٍ أَوَّلُ خَالِقِ السَّمَوَاتِ بِغَيْرِ عَمَدٍ وَفَرْدٍ وَحَمْدٌ وَذَوَالْجَلَالِ بِي زَوَالٍ وَلَا

يزال بركمال و آگاه كل حالغه... – Jaloli zavol topmaydigan, sifati barkamol va azaliy Zot bo'lgan, osmonlarning Yaratuvchisi, hech kimga hojati tushmaydigan yakkayu yagona Alloh taologa bitmas-tuganmas hamdu sanolar bo'lsin [2<sup>a</sup>].

سيدالكونين وامام الخرمين وقرته العينين وجدّ السيطيين وشفيع من في الدارين حبيب – Ikki olam sayyidi, ikki haram imomi, ikki ko'zning nuri, ikki yosh bolaning (Imom Hasan va Imom Husaynga ishora) bobosi, ikki olamning Haq yo'lidagi himoyachisi, duosi ijobat bo'ladigan nabi, ikki yelkasida nubuvvat muhri sohibi – Allohning sevimli habibi Muhammad Mustafo sallallohu alayhi va sallamga salotu salomlar bo'lsin [2<sup>a</sup>].

جهار يار با صفايعنى حضرت صديق وال فاروق وذون النورين ومرضى ايمه رضوانالله – Safo sohibi bo'lgan To'rt do'st – Hazrati Siddiq (tasdiqlovchi – Hazrati Abu Bakr), al-Foruq (xayr va sharrni ajratuvchi – Hazrati Umar), Zunnurayn (ikki nur sohibi – Hazrati Usmon), Mur-tazo (undan rozi bo'lgan – Hazrati Ali) va imomlarning barchasidan Alloh taolo rozi bo'lsin [2<sup>a</sup>].

امام سراج دين ابو حنيفه كوفى صوفى رحمت الله عليهم bo'lgan Abu Hanifa Kufiy so'fiyga Allohning rahmati bo'lsin [2<sup>a</sup>].

مسندنشين وتخت خلافته خاقان ابن الخاقان ابو المظفر والمنصور سيد امير يادگار – xalifalik taxti sohibi va suyanuvchisi hoqonning o'g'li Abul Muzaffar val Mansur Sayyid Amir Yodgor Muhammad Bahodirxon [2<sup>a</sup>].

Asar voqealari hamd, na't kabi an'anaviy kirishlar hamda kitobning yozilish sabablarini bayon qilgan muqaddimadan so'ng quyidagi boblarda bayon etilgan:

1. *Emdi Amir Temur sohibqironning paydo bo'lg'onlaridin aytoluk* [2<sup>b</sup>];

2. *Alqissa, emdi so'zni Amir Temur sohibqironning tavalludlaridin aytayluk* [6<sup>b</sup>];

3. *Alqissa, roviylar andoq rivoyat qilurlarkim, Amir Temur sohibqiron Xoja Arabning uyinda inoyati parvardigor o'shal kecha taval-lud bo'lg'onlari buturur* [9<sup>b</sup>];

4. *Ammo fasl doston bayon guftgo'y malahada anga niholi iqbol bo'ston kalimayi tayibag'a shamoli kufr solg'on Nosir Xisrav ot-lig' malohadaning bir necha mo'minlarg'a rohi zalolatni yoyg'oni hi-koyatidur* [17<sup>b</sup>];

5. Hikoyati dostoni sabab Amir Temur sohibqironning xuruju nishonai tarbiyatlari Hazrat Bahovuddin modarzod avliyo rahmatullohi alayhi buturur [51<sup>b</sup>];

6. *Hikoyati dostoni Hazrati Sayyid Ota rahmatullohu qudsi sir-*

*ra butururlar* [53<sup>b</sup>];

7. *Hikoyati dostoni sababi xuruj hazrat Amir Temur sohibqiron-din rivoyat qilayluk* [66<sup>b</sup>];

8. *Hikoyati doston hazrat Amir Temur sohibqiron viloyati Hindistonni fath qilg'onlari* [75<sup>b</sup>];

9. *Hikoyati dostoni sababi xuruj hazrat Amir Temur sohibqiron fathi poytaxti Maluxon* [83<sup>b</sup>];

10. *Hikoyati doston hazrat Amir Temur sohibqiron Odam Safiyulloh otamiz sallallohu alayhi vasallamning muborak qabrlarin ziyorat qilib, tilsimi Iskandarni sindurub va ruh har futuh Odam otamiz Safiyullohdin ruxsat olg'onlari* [90<sup>b</sup>];

11. *Qissai fathi Shom* [98<sup>a</sup>];

12. *Hikoyati dostoni xotima va bayoni hazrat Amir Temur sohibqiron Ka'bai muazzamni tavof aylab va ziyorati Haji Umra bajo kelturub o'z diyorlarig'a yoyg'onlarini bayoni buturur* [109<sup>a</sup>].

Asarda keltirilgan voqealarning umumiy manzarasi, yo'nalishi shulardan iborat. Muallif asarda badiiy tasvirga xos kichik voqealarni ham xalq kitoblari usulida mahorat bilan tasvirlagan.

185-raqamli qo'lyozma sarlavhasiz "Bismillohir Rahmonir Rahim" kalimasi bilan boshlanadi. Manbaning muqaddima qismi, ya'ni birinchi sahifa qizil siyoh bilan ramkaga olingan, qolgan sahifalarda ramka mavjud emas. Sahifalarda sarlavhalar qo'yilmagan, biroq ba'zi o'rinlarda sarlavha uchun joy qoldirib ketilgan. An'anaviy qolip jumlar ushbu manbada ham anchagina, lekin bu jumlar yuqoridagi 5738-raqamli qo'lyozma nusxadagi kabi matndan ajratib qizil siyoh bilan yozilmagan.

Unda ham asosiy matndan tushib qolgan so'z va jumlar xattotning qayta tahriri jarayonida "qanotcha" belgisi ostida hoshiyada berib borilgan. Bular quyidagilar:

4<sup>a</sup> sahifada "...alomati pahlavon...";

5<sup>b</sup> sahifada "...bu tarafdin Mirzo Sayfuddin Amir Chokuni o'g'li ot o'ynatib maydong'a kirdi, ul tarafdin Qato' degan andijoniy maydong'a kirdi...";

6<sup>a</sup> sahifada "... ayturlarkim ul vaqt Nosir Xisrav xizmatida Ko'r Qavchin degan bir muridi ko'r bor erdi. Andog' tirandoz edikim, ikki kamonni qo'lg'a olib ani nishonag'a to'g'ri qilib bersalar masofat bir farsang yerdin nishonani bexato urar erdi. Mal'unlar aning kelturub, muhoziy lashkari Bayonqulixong'a o'tqurdilar kamonni qo'lig'a berib tug'i Baroqxonni nishona bog'ladilar. Miqdori yarim farsangdin tug' podshohni chunon urdiki, tug' yaku nisor bo'lub yiqildi. Andin islom cheriki vahm xavotirg'a tushub va yana...";

6<sup>b</sup> sahifada “...ul kecha mavlono voqea ko’rdilarki...”;

8<sup>a</sup> sahifada “...ey musofir, turg’il bul podshohning qizi turur...”;

10<sup>b</sup> sahifada “...oyog’” kabi so’z va jumlarlar.

Ushbu qo’lyozmada kotib tahririning o’ziga xos tomoni shundaki, unda so’z, jumla va gaplar bilan birga bir necha gapdan iborat matnlar ham tuzatish sifatida hoshiyada berilgan.

Qo’lyozmadagi she’riy parchalar ajratib ko’rsatilmay, matn ichida nasriy yo’lda berilgan. Ushbu manbada ham ayrim so’zlar bo’yalgan yoki ustidan chizib to’g’irlangan, biroq bunday holatlar mazkur manbada juda kam uchraydi. Boshqa qo’lyozmalardagi kabi unda ham Qur’oni Karim oyatlari, hadisi shariflar va an’anaviy duolar arab tilida beriladi. Sharaflash kalimalari esa arab yoki fors tilida kiritilgan. Fasllar nomlanishi, arabiy va forsiy matnlar 5738-raqamli nusxa bilan bir xil, shu bois ularni qayta istifoda etmadik.

4105-raqamli qo’lyozmada “Temurnoma” matni 7<sup>b</sup>-sahifadan boshlanadi. Asardagi ayrim voqealar bayonida keyinchalik qora qalam bilan sarlavhalar yozilgan. Masalan, manbaning 10<sup>a</sup> betida qalam bilan قصة تيمورنامه (Qissai Temurnoma) deb sarlavha qo’yilgan. Bu sarlavhalar xattot tomonidan emas, balki keyinchalik biror kitobxon yoki qo’lyozma fond xodimlari tomonidan yozilgan bo’lishi mumkin. Xuddi shu kabi qalam bilan qo’yilgan sarlavhalar quyidagi ko’rinishda:

13<sup>b</sup> – كرامت شيخ “Karomati shayx”;

17<sup>a</sup> – مناجات “Munojot”;

19<sup>a</sup> – تولد صاحبقران “Tavalludi Sohibqiron”;

22<sup>b</sup> – امر خاكو “Amir Xoku”;

29<sup>a</sup> – قصة ناصر خسرو “Qissai Nosir Xisrav”.

Mazkur qo’lyozma ham kotib tomonidan qayta tahrir qilingan bo’lib, asosiy matndan tushib qolgan so’z va jumlarlar yuqoridagi ikki qo’lyozma nusxadagi kabi qanotcha belgisi ostida hoshiyada berib boriladi. Masalan:

47<sup>b</sup> sahifada “bu dunyoning zavqin xohlamaydurmiz”;

59<sup>a</sup> sahifada “...sizdan ham ayrilib diydor qiyomatg’a qolmasun deb ruxsat bermadi...”;

74<sup>b</sup> sahifada “...Sayyid Ota O’zbekxonning oldiga ro’baro’ chiqtilar...”;

87<sup>b</sup> sahifada “...qoplون minib...”;

98<sup>a</sup> sahifada “...mo’rmalaxdek bosib poymol qilib, Qarshu ke-lib falon yerga kelib tushti va yana so’ngidin dasta-dasta, to’b-to’b...”;

98<sup>b</sup> sahifada “...va lashkari mo’g’ul tabl qoqib, qalin saf tortib...”;

111<sup>a</sup> sahifada "...Amir Temur Sohibqiron...";

129<sup>b</sup> sahifada "...alassaboh maydonga Amir Temur chiqsun...";

131<sup>a</sup> sahifada "...otamiz Odam safiyullohning yaratgan..." jumalari qanotcha belgisi ostida hoshiyada istifoda etilgan.

Nazmiy parchalar esa ushbu manbada har xil ko'rinishda berilgan. Ayrim she'rlar "bayt" sarlavhasi ostida nazmiy asarlardagi kabi jadval ichida berilgan bo'lsa, boshqalari ikki ustun shaklida, ba'zi she'rlar (ruboiy, masnaviy va munojotlar)ning har bir misrasi 5738 qo'lyozma manbadagidek qizil rangli uch nuqta bilan ajratib ko'rsatilgan.

Qo'lyozmadagi arabiy, forsiy mikromatnlar (Qur'oni Karim oyatlari, hadisi shariflar, an'anaviy duolar) qizil siyoh bilan ko'chirilgan yoki matn osti qizil rangda ajratib ko'rsatilgan.

Mazkur manbaning ham ayrim sahifalaridagi so'z va jumlar bo'yalgan yoki ustiga chizilib, xattot tomonidan qayta tahrir qilingan, xususan: 17<sup>a</sup> sahifaning 6-7-qatorlaridagi "Alqissa, cho'pon Sakinabegimni o'shal quduqdin tortib chiqorib, xojasining oldig'a kelturdi..." jumlasida ba'zi so'zlar bo'yalgan, hatto, qog'ozning orqa tarafidagi matnlarga ham ma'lum darajada ta'sir etgan. 22a sahifadagi "... Amir Xoku degan bir hokim bor erdi, banogoh bir necha mahramlari birlan shikorga chiqib erdilar, ittifoqo, guzarlari o'shal tog' tubidagi yo'lg'a tushti..." jumlasidagi "mahramlari", "ittifoqo" so'zlari xattot tomonidan ustiga chizilib, qayta tahrir qilingan. Bu kabi siyoh chaplanishi va tahrirlar 28<sup>b</sup>, 33<sup>b</sup>, 36<sup>a</sup>, 48<sup>b</sup>, 69<sup>a</sup>, 72<sup>b</sup>, 84<sup>b</sup>, 116<sup>b</sup> sahifalardagi ayrim so'z va jumalarga ham tegishli.

Ta'liq va nasta'liq yozuvida bitilgan qo'lyozmalarga xos bo'lgan paleografik belgilarning aksariyati tadqiqot manbasi sifatida olingan "Temurnoma"larning barchasida kuzatiladi. Ular quyidagilarda ko'rinadi:

1. Muayyan so'z yoki jumla bir qo'lyozmaning o'zida turli shakllarda yozilgan.

2. Turli harflarga tegishli nuqtalar ayrim o'rinlarda yig'ma holatda berilgan.

3. Ko'pchilik harflarning nuqtalari chala qo'yilgan yoki umuman qo'yilmagan holatlar mavjud.

4. Ayrim so'zlar bir-birining ustiga mingashtirilgan holda yozilgan.

5. Qo'shimchalar ayrim hollarda so'zga qo'shib, ba'zan so'zdan ajratib yozilgan.

6. "Temurnoma"larning ayrimlarida س (sin) harfi tishsiz yozilib ostiga uch nuqta qo'yilgan.

7. پ (pe), چ (chim) va گ (gof) harflari hamma o‘rinlarda ب (be), ج (jim) va ک (kof) shaklida bitilgan.

8. Satr usti va satr osti belgilari qo‘llanmagan.

Bunday hollar muayyan qo‘lyozma matnini ayni asarning boshqa nusxalari bilan qiyoslash, shuningdek, asarda tasvirlanayotgan voqelik mazmunidan kelib chiqib tiklandi.

“Temurnoma”larning qo‘lyozmalarini tadqiq qilish natijasida ularda qator matniy tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Bular kotiblarning qo‘lyozmalar uchun asos bo‘lgan birlamchi manbalar matnidagi so‘zlarni o‘qiy olish qobiliyati, turkiy, forsiy va arab tillarini bilish darajasi hamda so‘zlarni yozishda grammatik va fonetik qoidalarga rioya qilishi, shuningdek, kalligrafik qoidalarni o‘zlashtirganlik darajasi bilan bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan tadqiq doirasiga olingan qo‘lyozma nusxalarda quyidagi tafovutlar aniqlandi:

1. O‘qilishi qiyin so‘zlar yoki forsiy so‘z va izofalarni mazmunga mos keladigan boshqa turkiy so‘z va iboralar bilan almashtirish. Bunday holatlarda qo‘lyozma kotiblari yashagan adabiy muhit tili ham ta’sir etgan ko‘rinadi. Chunki asar forsiy “Temurnoma”lar asosida yaratilgani bois qo‘lyozmada forsiy, arabiy so‘z va izofalar salmog‘i anchagina. Asar dastlab Xorazm adabiy muhitida yaratilib kitobat qilingan bo‘lsa, keyinchalik ushbu asar boshqa adabiy muhit xattotlari tomonidan ham bir necha bor qayta ko‘chirilgan. Shu bois ushbu nusxalarda tayanch nusxadagi ayrim forsiy so‘z va iboralarning turkiy varianti istifoda etilgan. Masalan, 5738-raqamli qo‘lyozmadagi عاجزة شريفنى (ojizai sharifni), عقد (aqd) yoki دويم (duyim), ثيوم (seyum) kabi tartib sonlar 4105 va 185-raqamli nusxalarda قرنى (qizni), نيكاح (nikoh), ايكنچى (ikkinchi), اوچونچى (uchunchi) deb o‘zbek tiliga tarjima qilinib berilgan. Demak, 5738-raqamli nusxada forsiy izofalar aynan berilgan bo‘lsa, 4105 va 185-raqamli nusxalarning kotiblari arabiy va forsiy so‘z hamda izofalar mazmuniga mos o‘zbekcha so‘z va iboralardan foydalangan. Bunday o‘zgarishlar ushbu qo‘lyozmalarda salmoqli o‘rin egallaydi.

2. Qo‘lyozma manba matnidagi sarlavhalarining har xilligi, ularning turli tillarda ekani, bir qo‘lyozmada mavjud sarlavhalar boshqa nusxalarda yo‘qligi, ayrim qo‘lyozmalarda boblar sarlavhalanmagani yoki bir necha bob bir umumiy sarlavha ostida bayon qilinishi kuzatiladi. Xususan, 5738-raqamli qo‘lyozmaning 2<sup>b</sup>-sahifadagi “Emdi Amir Temur Sohibqironning paydo bo‘lg‘onlaridin aytoluk” sarlavhasi 185-raqamli qo‘lyozmaning 1<sup>b</sup> sahifada “Emdi Sohibqiron Amir Temurning paydo bo‘lg‘onidin ne

turlik zindagoni etibdur bayon etoli” shaklida berilgan.

3. Soʻzlarning turlicha yozilishi: 5738-raqamli nusxa 1<sup>b</sup> sahifasidagi متحد قلب (muttahid qilib) soʻzi 185-raqamli nusxa 1<sup>b</sup> sahifasida متحد ايتدى (muttahid etdi); 5738-raqamli nusxa 1<sup>b</sup> sahifasidagi كونكولمىزغه (koʻnglumizgʻa) soʻzi 185-raqamli nusxa 1<sup>b</sup> sahifasida كونكولغه (koʻngulgʻa) va hokazo.

Yana bir misol, Sohibqiron Amir Temurning nasablari 5738-raqamli nusxada حام نسلى اغدا اورغيدىن تورور (Hom nasli Oʻgʻdo urugʻidin turur) deb berilsa, 185-nusxada چىنكزخان نسلى اوغوزخان اوروغيدىن ايرور (Chingizxon nasli Oʻgʻuzxon urugʻidin erur) deb beriladi.

4. Nuqtalarning qoʻyilmasligi yoki boshqa oʻringa qoʻyilishi natijasida maʼno oʻzgarishiga sabab boʻlgani.

5. Matnda mavjud baʼzi soʻz va jumalarning, ayrim voqealarning syujetlari kotiblar tomonidan tushirib qoldirilishi hollari: 5738-raqamli qoʻlyozmadagi baʼzi nazmiy parchalar 185-raqamli nusxada kotib tomonidan tushirib qoldirilgan boʻlsa, 185-raqamli nusxada mavjud voqealarning ayrimlari 5738-raqamli nusxada uchramaydi. Masalan, Amir Tagʻoy Bahodir oʻgʻli Amir Temurni izlab Amir Xoku (Choku) dargohiga borishida Amir Temurning ilon boshini tishi bilan uzib olishi voqeasi 5738-raqamli nusxasida uchramaydi. Sohibqiron haqidagi ushbu gʻayritabiyy voqea 185-raqamli qoʻlyozmada quyidagicha:

“...Nogoh koʻrdikim, bir joy – bir tarafi togʻ, bir tarafi besha va lolazor. Anga borub koʻrarkim togʻning ostida bir oʻgʻlon yotibturki, peshonasidin farr shohiy va alomati pahlavon zohiru huvaydo boʻlubtur. Nogoh togʻni shikofidin bir ilon chiqib ul bachchani ustiga chiqib ogʻzigʻa roʻbaroʻ boʻlub bordi. Qaribdurki ul bachchani ogʻzigʻa havola boʻlub kirgay. Ul oʻgʻlon nim xob, nim bedor turur. Bahodir koʻrgan soat naʼra urdiki, ey bachcha, xabardor boʻl. Darhol ilon oʻgʻlonni ogʻzigʻa kirmak boʻldi. Oʻgʻlon ilonni boshini tishlab uzub tashladi. Bahodir ani koʻrub tahsin ofarin qilib ul oʻgʻlonni suyub aydi: ey oʻgʻlon qaydin boʻlursan? Ul bachcha aydi: otim Temur, Amir Chokuni qulbachchasi boʻlurman, dedi. Bahodir aydi: Ey oʻgʻlon, sen qul ermassan. Menga Shayxul olam koʻrsatgan kishiga sen oʻxsharsen, deb qoʻshulub Amir Chokuning oldigʻa ravona boʻldilar...” [4<sup>a</sup>]. Yuqoridagi kabi ayrim voqea syujetlari qoʻlyozmalarda farq qiladi.

6. Bir soʻzning ikki xil variantda kelishi: 5738-raqamli nusxaning 2<sup>b</sup> sahifasidagi مختصر يىخشىراق (muxtasari yaxshiroq) jumlasida 185-raqamli nusxaning 1b sahifasida اختصار بهراق (ixtisor behroq) tarzida qoʻllangan.



7. Ayrim o‘rinlarda so‘z va jumlalarining o‘rni almashib kelgan holatlar ham ko‘p uchraydi. Masalan, 5738-raqamli nusxada *امير تيمور صاحبقران* (Amir Temur sohibqiron) birikmasi 185-raqamli nusxada *صاحبقران امير تيمور* (Cohibqironi Amir Temur) shaklida beriladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan farq va kamchiliklardan tashqari, harflarning nuqtalaridagi farqlar, harflar nuqtalarining ortiqcha yozilgan yoki umuman yozilmagan hollari, so‘zlarning qo‘shilib yoki ajratib yozilishi bilan bog‘liq farqlar mavjud. Umuman, “Temurnoma” qo‘lyozmalarining o‘nlab nusxalarini tekstologik jihatdan o‘rganish va uning muallif variantiga yaqin matnini yaratish hamda bu asarning adabiyot tarixidagi ahamiyatini belgilab berish maqsadida 3 ta qo‘lyozma nusxasi tadqiqot manbai sifatida ajratib olindi. Bular orasidan kitobat sanasining qadimiyligi, asar matnining to‘liqligi va savodli ko‘chirilgani nuqtai nazaridan 5738-raqamli qo‘lyozma tayanch nuxsa sifatida belgilandi. Qolgan qo‘lyozmalar yordamchi nusxalar vazifasini bajaruvchi manbalar sifatida qaraldi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, qo‘lyozma nusxalarning ko‘chirilish sanasi aslyat yaratilgan tarixdan uzoqlashgani sari doston matni va sarlavhalar kotiblar tomonidan istalgan tilda (o‘zbek va forsiy tillarda) o‘zgartirilib borilgan. Shuningdek, kotiblar forsiy izofa va so‘zlarni muqobil o‘zbekcha so‘zlar bilan almashtirib ko‘chirgan o‘rinlar ham ko‘p ekanligi aniqlandi. Bu hol kotiblarning turkiy, forsiy va arabiy tillarini bilish darajasi va so‘zlarni yozishda grammatik va fonetik qoidalarini o‘zlashtirganlik darajasi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlash muhim.

### **Xulosa**

Tadqiqot manbasi sifatida olingan “Temurnoma”larning barchasida ta’liq va nasta’liq yozuvida bitilgan qo‘lyozmalarga xos bo‘lgan paleografik belgilarning aksariyati kuzatiladi. Bunga, asosan, asar nusxalari ko‘chirilgan joylarning til xususiyatlari, ko‘chirilgan davri va kotiblarning salohiyati sezilarli ta’sir etgan. “Temurnoma”-lar matnidagi paleografik belgilar quyidagilarda ko‘rinadi:

1) muayyan so‘z yoki jumla bir qo‘lyozmaning o‘zida turli shakllarda yozilgan;

2) turli harflarga tegishli nuqtalar ayrim o‘rinlarda yig‘ma holatda berilgan;

3) ko‘pchilik harflarning nuqtalari chala qo‘yilgan yoki umuman qo‘yilmagan holatlar mavjud;

4) ayrim so‘zlar bir-birining ustiga mingashtirilgan holda yozilgan;



5) qo'shimchalar ayrim hollarda so'zga qo'shib, ba'zan so'zdan ajratib yozilgan;

6) "Temurnoma"larning ayrimlarida س (sin) harfi tishsiz yozilib ostiga uch nuqta qo'yilgan;

7) پ (pe), چ (chim) va گ (gof) harflari hamma o'rinlarda ب (be), ج (jim) va ک (kof) shaklida bitilgan;

8) satr usti va satr osti belgilari ishlatilmagan.

"Temurnoma"lar qo'lyozmalarida ko'pgina o'zaro matniy tafovutlar kuzatiladi. Bular kotiblarning qo'lyozmalar uchun asos bo'lgan birlamchi manbalar matnidagi so'zlarni o'qiy olish qobiliyati, qo'lyozmaga yondosh manbalardan xabardor ekanligi, turkiy, forsiy va arab tillarini bilish darajasi hamda so'zlarni yozishda grammatik va fonetik qoidalarga rioya qilishi, shuningdek, kalligrafik qoidalarni o'zlashtirganlik darajasi bilan bog'liqdir.

Qo'lyozmalarni o'zaro muqoyasa etish ularda ko'plab matniy farqlar mavjudligini ko'rsatadi. "Dostoni Amir Temur"ning 5738-raqamli nusxasi boshqa nusxalarga qaraganda kam shikastlangan va bizgacha to'laroq yetib kelgan. Ushbu qo'lyozmani asarning tayanch nusxasi sifatida belgilash mumkin. Chunki, birinchidan, qo'lyozmaning mukammalligi, qadimiyligi va to'liqligi jihatidan u muallif matniga yaqin nusxadan ko'chirilgan bo'lishi haqiqatga yaqin. Ikkinchidan, qo'lyozmaning bayon tartibi va uslubi, asar matnining boshqa keyin ko'chirilgan nusxalar bilan aksariyat hollarda monandligi, kitobat darajasining afzalligi hamda qo'lyozma matnida nuqsonlarning nisbatan kamligi bunga asos bo'ladi.

Badiiy-tarixiy nasr namunasi bo'lmish "Temurnoma"larda arab tilidagi mikromatnlardan, asosan, Qur'oni Karim oyatlari, hadisi shariflar, an'anaviy duolar va sharaflash kalimalarini istifoda etishda keng foydalanilgan. Qo'lyozma nusxalarning ko'chirilgan sanasi aslyat yaratilgan davrdan uzoqlashgani sari doston matni va sarlavhalar kotiblar tomonidan istalgan tilda (o'zbek va forsiy tillarda) o'zgartirib borilgan. Shuningdek, kotiblar forsiy izofa va so'zlarni muqobil o'zbekcha so'zlar bilan almashtirib ko'chirgan o'rinlar ham ko'p va ushbu hol ularning turkiy, forsiy va arabiy tillarini bilish hamda so'zlarni yozishda grammatik va fonetik qoidalarni o'zlashtirish darajalari bilan bog'liq.

### **Adabiyotlar**

*Алишер Навоий асарлари луғати.* 1972. Тузувчилар: Порсо Шамсиев ва бошқалар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

Муҳаммадхожа бин Жаъфархожа. XIX асрнинг II ярми. *Достони Амир*

- Темур Кўрагон. Қўлёзма: ЎзФАШИ, № 5738.  
Муҳаммадхожа бин Жаъфархожа. XIX асрнинг II ярми. *Достони Амир*  
Темур Кўрагон. Қўлёзма: ЎзФАШИ, № 185/И.  
Муҳаммадхожа бин Жаъфархожа. XIX асрнинг II ярми. *Достони Амир*  
Темур Кўрагон. Қўлёзма: ЎзФАШИ, № 4105/II.  
Жабборов, Нурбой. 2014. "Бадий матн таҳрирининг хос хусусиятлари". *Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари*, анжуман материаллари, 28. Тошкент: Мумтоз сўз.  
Жабборов, Нурбой. 2019. "Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни". *Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари: илмий-амалий конференцияси материаллари*, 12-23. Тошкент: Мумтоз сўз.  
Каримов, Ғ.К. 1966. *Ўзбек адабиёти тарихидан*. Тошкент: Ўқитувчи.  
Лихачев, Димитрий. 2001. *Текстология на материале русской литературы X – XVII веков*. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва, 33. Санкт-Петербург: Алетейя.  
Шодмонов, Н. 2009. *Шоҳиду-л-иқбол – адабий манба*. Тошкент: Муҳаррир.

## Text features of "Temurnoma"

Abdimurod Arslonov<sup>1</sup>

### Abstract

A special series of short stories and epics about Amir Temur appeared in the form of folk books in the territory of Uzbekistan. Some of them are written in Persian, some in Turkish-Chagatai. During the years of independence, there began a large-scale study of the history of Amir Temur. Attention was also paid to the artistic interpretation of the image of Sahibkiran. It is noteworthy that in recent years, the textual study of works of art created by artists of the past has become more organized. However, it should be noted that the problems of restoring our centuries-old traditions, national values, spiritual and cultural riches, an objective study of our artistic heritage have not yet been fully resolved. In particular, the text of the "Temurnoma" dedicated to the life of the great political leader and Commander Sahibkiran Amir Temur and their manuscript sources have not studied yet as a separate monograph. Therefore, there is a need for a comparative study of the manuscripts of works of art and history dedicated to the life and work of this person, and to re-examine the "Temurnoma" on the basis of the achievements of textual and literary sources. Accordingly, there is a great need for a comparative and textual study of works about art and history, such as "Temurnoma", which covers the life of Amir Temur and his reign. This article examines the textual sources of manuscripts of works about art and history dedicated to Amir Temur.

**Key words:** *textual research, manuscript, speech pattern, folk books, historical and cultural heritage.*

### References

- Alisher Navoiy asarlari lug'ati.* 1972. Tuzuvchilar: Porso Shamsiyev va boshqalar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Muhammadxoja bin Ja'farxoja. XIX asrning II yarmi. *Dostoni Amir Temur Ko'ragon.* Qo'lyozma: O'zFASHI, № 5738.
- Muhammadxoja bin Ja'farxoja. XIX asrning II yarmi. *Dostoni Amir Temur Ko'ragon.* Qo'lyozma: O'zFASHI, № 185/I.

---

<sup>1</sup>Abdimurod K. Arslonov – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Termez State University.

**E-mail:** arslonova@tersu.uz

**ORCID ID:** 0000-0003-0553-6624

**For citation:** Arslonov, A.K. 2021. "Text features of "Temurnoma". *Golden pages* 2: 34-49.

- Muhammadxoja bin Ja'farxoja. XIX asrning II yarmi. *Dostoni Amir Temur Ko'ragon*. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 4105/II.
- Jabborov, Nurboy. 2014. “Badiiy matn tahririning xos xususiyatlari”. *O'zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari*, anjuman materiallari, 28. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Jabborov, Nurboy. 2019. “O'zbek matnshunosligi va unda matn tanqidi, ilmiy-tanqidiy matn istilohlarining o'rni”. *O'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishning nazariy va manbaviy asoslari*, konferensiya materiallari, 12-23. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Karimov, G.K. 1966. *O'zbek adabiyoti tarixidan*. Toshkent: O'qituvchi.
- Lixachev, Dimitriy. 2001. *Tekstologiya na materiale russkoy literaturi X – XVII vekov*. Pri uchastiye A.A. Alekseyeva i A.G. Bobrova, 33. Sankt-Peterburg, Izd-vo “Aleteyya”.
- Shodmonov, N. 2009. *Shohidu-l-iqbol* – adabiy manba. Toshkent: Muharrir.

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo‘ljallangan.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar yil davomida o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo‘yicha MS Word menejerini qo‘llash lozim.

Barcha qo‘lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

100–150 so‘zdan iborat o‘zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o‘ng chetida

muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (\*) ishorasi qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

### **III. Maqolada tarjimalardan foydalanish**

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

### **IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi**

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

### **V. Havola va izohlar berish**

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

### **VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi**

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

## 6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

### **Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:**

[Xondamir, Makorim, 17<sup>a</sup>]

## 7.2. Kitoblar uchun

### **Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

### **Matnda kitobga havola:**

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

### **Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

### **Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

### **Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

### **Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili



(URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

### **Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.  
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany:  
Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

### **Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:  
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek  
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.  
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

## **7.3. Jurnal maqolasi uchun**

### **Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:  
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniyl adabiyoti."  
*Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

### **Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

### **Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

### **Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

## **7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

**Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

**Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

**Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

**Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

## Qaydlar uchun

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.  
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy.  
e-mail: goldenscripts@gmail.com  
Tel.: +99891 166-31-38  
Bosishga 30. 06. 2021-yilda ruxsat etildi  
Qog‘oz bichimi 70x100 1/16/.  
nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.  
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.  
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.  
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,  
+99894 659 94 62